

**FYODOR DOSTOYEVSKIYNING "JINOYAT VA JAZO" ASARIDAGI  
FALSAFIY VA DINIY MAVZULAR**

**Ostonova Shohsanam Oybek qizi**

Ilmiy rahbar: **Ochilova Nafisa Usmonovna**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

**Annotatsiya:** Maqolada, rus adabiyoti durdonasi hisoblangan Fyodor Dostoyevskiyning hayoti va ijodi hamda shoirning qalamiga mansub "Jinoyat va Jazo" romani, uning obrazlar tizimi, asardagi bosh qahramonlarning harakter xususiyatlari, boshdan o'tkazgan kechinmalari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Fyodor Dostoyevskiy, qahramon, asar, Raskolnikov, "Jinoyat va jazo", realistik roman.

**Abstract:** In the article, the life and work of Fyodor Dostoyevsky, considered a masterpiece of Russian literature, as well as the novel "Crime and Punishment" written by the poet, his system of images, the character traits of the main characters in the work, and his experiences are discussed in detail.

**Key words:** Fyodor Dostoyevsky, hero, work, Raskolnikov, "Crime and Punishment", realistic novel.

**Аннотация:** В статье рассмотрены жизнь и творчество Федора Достоевского, считающегося шедевром русской литературы, а также роман «Преступление и наказание», написанный поэтом, его система образов, черты характера главных героев произведения. работа, и его опыт подробно обсуждается.

**Ключевые слова:** Федор Достоевский, герой, произведение, Раскольников, «Преступление и наказание», реалистический роман.

"Telba", "Aka-uka Karamazovlar", "Jinoyat va jazo" kabi jahon adabiyoti durdonalari muallifi Fyodor Dostoyevskiy ijodi tiriklik davrlarida ham, vafotidan keyin ham turli bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. Jumladan, Nikolay Nekrasov, Vissarion Belinskiy va boshqa ko'plab adabiyot namoyandalari uni ko'klarga ko'tarsa, Vladimir Nabokov uning ijodiga keskin tanqidiy ruhda qarab, yozuvchini "Arzon jurnalist" deb ataydi. Ijodiy faoliyatini 1844-yilda boshlangan bo'lib, birinchi romani — „Bechora odamlar“da xo'rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo'lgan „kichkina odamlar“ning qismati haqida hikoya qilingan. „Qiyofadosh“, „Oq tunlar“ qissalari ham kitobsevarlar tomonidan iliq kutib olingan. Uzoq muddatli tutqunlik va surgun Fyodor Dostoyevskiy ijodida o'z ifodasini topadi, tushkunlik ustuvor mavzuga aylanadi. „Stepanchikov qishlog'i va uning axoliyey“, „Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar“, „O'lik xonadondan maktublar“ asarlari jaholat botqog'iga botib, insoniy qiyofasini yo'qotgan ruslar hayotiga bag'ishlangan. Dostoyevskiy (akasi) bilan hamkorlikda „Vremya“, „Epoxa“ jurlarini nashrini tashkil etadi. Bular da Rossiyadagi krepostnoylik tartibi, aslzoda (dvoryan) larning ma'naviy axloqiy tubanligi, mehnatkashlar shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishini fosh etishdan tashqari, millatchilik, buyuk davlatchilik

(showinizm) g'oyalari, xususan, chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning zabt etilishi targ'ib qilinadi. „Biz Yevropaga bostirib borsak, ular bizni varvarlar sifatida qarshi oladi, Osiyoda esa bizni madaniyatli millat kabi kutib olishadi“, deb, Kaufman, Skobelev singari harbiylar Turkistonni bosib olishga da'vat etiladi. „Jinoyat va jazo“, „Telba“ romanlarida rus xalqining ma'naviy muammolari badiiy bo'yoqlarda yaqqol aks ettirilgan asarlaridan hisoblanadi. „Jinlar“, „O'smir“ romanlarida esa rus „oqsuyaklari“ tabaqasi, amaldorlari orasida ma'naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko'zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko'rsatilgan, ichki-milliy muammolarni boshqa bir xalq hisobiga hal etib bo'lmasligi e'tirof etilgan. „Og'a-ini Karamazovlar“ romanida jamiyat va shaxs o'rtasidagi chuqur ziddiyat, ruhiy inqiroz va fojia o'z ifodasini topgan. Dostoyevskiy Fyodorning ijodi, garchi ziddiyatli bo'lsada, rus va jahon adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Dostoyevskiy XIX asrdagi realistik roman janrini yangi o'ziga xos tomonlar bilan boyitdi. Adib to'laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimini, insonlar takdirini, qalb kurashini, balki jamiyat ma'naviy hayotidagi fojiaiy konfliktlarni ham bera oldi. O'zining intellektual romanlarida fikrlarning keskin kurashini, g'oya va dunyoqarashning fojiaiy to'qnashuvini mahorat bilan tasvirladi. Dostoyevskiy romanlari vazmin tasvir uslubi emas, aksincha, sof dramatik janrlarga xos keskinligi va liro-publitsistik pafosi bilan ajraladi. „Jinoyat va jazo“ — 1865—1866-yillarda Fyodor Dostoyevskiy tomonidan yozilgan ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-falsafiy roman. Dastlab 1866-yilda „Russkiy vestnik“ jurnalida nashr etilgan. Bir yil o'tgach, alohida nashr chop etilib, jurnal tarkibi bilan taqqoslaganda uning tuzilishi biroz o'zgartirildi; bundan tashqari, muallif kitob versiyasiga bir qator qisqartirishlar va uslubiy o'zgartirishlar kiritgan. 1880-yillarda asar fransuz, nemis, shved, ingliz, polyak, venger, italyan, norveg va fin tillariga tarjima qilingan. Asar jahon adabiy jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Romanda sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlarini haqida hikoya qilinadi. Romanning eng muhim xususiyatlaridan biri qahramonlar psixologiyasining chuqurlashishidir. Bunda ichki dunyo ham tashqi dunyo kabi muhimdir. Qahramonlar tavsifi va ichki dialoglar inson psixologiyasiga nisbatan yangi yondashuvni ochib beradi. Hikoyadagi bosh qahramon – Sankt-Peterburgdagi kichkina xonadonda yashovchi sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov. U katta yutuqlarga erishaman deb o'ylaydi, ammo ichki baxtsizlik imkoniyatlarini ishga solishiga xalaqit beradi. Axloqiy savol tug'iladi: nodon va jirkanch odamning o'ldirilishi, agar maqsad ezgu bo'lsa, axloq qoralanishi mumkinmi? Raskolnikovning fikricha, barcha ustun odamlar maqsadiga erishish uchun qotillik qiladi, bu insoniyat uchun katta yutuqdir. O'sha odamlardan biri ekaniga ishongan holda Raskolnikov kampirni (juda katta foizlar bilan qarz beradigan va mehribon singlisiga ham yomon munosabatda bo'lgan shaxsni) o'ldirish unga imkoniyatlarini ochib berish uchun vositalarni olishga imkon beradi deb hisoblaydi. Uning o'ylashicha, bu noqonuniy bo'lsa ham, axloq qoralanmasligi kerak. Fyodor Dostoyevskiy psixologik jihatdan qiyin, falsafiy jihatdan yetuk roman yaratdi, unda, boshqa detektivlardan farqli o'laroq, boshlanishdanoq jinoyat va jinoyatchi aniq, qolgan hamma narsa – jazo. Jazo rasmiy emas (qahramon unga faqat asar so'ngida keladi), ruhiy. Rodion Raskolnikov, bosh qahramon – mehribon qalbgaga ega inson. U oxirgi pulini, agar kerak bo'lsa, notanish odamga berishga tayyor. Biroq bu yorqin odam dahshatli ishga – qotillikka qo'l urdi. Avvaliga u aybini tan olmaydi, go'yo nima uchun bunday jinoyat sodir etganini bilmaydi. Oddiy qilib aytganda, u qotillikdan olti oy oldin yozgan jinoyat to'g'risidagi nazariyasini sinab ko'rish va isbotlashni xohladi. Dostoyevskiyning „Jinoyat va jazo“, „Telba“ va boshqa asarlari Ibrohim G'afurov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F. M. Dostoyevskiy tug‘ilgan kunning 150 yilligi (esdaliklar), T., 1971.
2. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/fyodor-mixaylovich-dostoyevskiy-hayoti-va-ijodi>